



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, IV-QISM

OPEN  ACCESS

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Google
Scholar

Academic
Resource
Index
ResearchBib



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	



MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li
Andijon davlat texnika instituti
"Menejment" kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro kompaniyalar va transmilliy korporatsiyalarning (TMK) zamonaviy global iqtisodiyotdagi o'рни, ularning an'anaviy monopolistik birlashmalardan (kartel, sindikat, trest) farqli jihatlari tahlil qilinadi. Milliy kompaniyalarning xalqaro darajaga ko'tarilishini rag'batlantiruvchi asosiy iqtisodiy omillar, tashqi iqtisodiy faoliyatning evolyutsion bosqichlari (bir martalik bitimlardan to TMK shakllanishigacha) va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarni tartibga solishdagi institutsional tizimi yoritilgan. Shuningdek, kompaniyalarning qo'shilishi strategiyalari va transmilliylashuv indeksini hisoblash metodologiyasi amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro kompaniya, transmilliy korporatsiya, kontsern, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, konsortsium, qo'shma korxona, transmilliylashuv indeksi.

Аннотация: В статье анализируются эволюционные этапы выхода национальных компаний на международные рынки и процессы их интернационализации. Системно освещен путь развития предприятий от простых экспортно-импортных сделок до долгосрочных контрактов, консорциумов, совместных предприятий и транснациональных корпораций (ТНК). Также изучены особенности стратегий международных корпоративных слияний и поглощений (M&A), показатели их эффективности и институциональная система Республики Узбекистан по регулированию международных договорно-правовых отношений. В заключении статьи представлена методология оценки индекса транснационализации компаний.

Ключевые слова: интернационализация, международная компания, транснациональная корпорация, консорциум, совместное предприятие, слияния и поглощения (M&A), эффективность, индекс.

Abstract: Article analyzes the evolutionary stages of national companies entering international markets and the processes of their internationalization. The development path of enterprises from simple export-import transactions to long-term contracts, consortia, joint ventures, and multinational corporations (MNCs) is systematically highlighted. Furthermore, the specific features of international corporate mergers and acquisitions (M&A) strategies, their performance indicators, and the institutional system of the Republic of Uzbekistan for regulating international legal relations are studied. The article concludes with a methodology for assessing the transnationalization index of companies.

Keywords: internationalization, international company, multinational corporation, consortium, joint venture, mergers and acquisitions (M&A), efficiency, transnationalization index.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi sharoitida transmilliy korporatsiyalar (TMKlar) xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim subyektlaridan biriga aylandi. Kapital, texnologiya va innovatsiyalarning davlatlar o'rtasida erkin harakatlanishi korxonalarning milliy bozorlar doirasidan chiqib, xalqaro miqyosda faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Natijada yirik kompaniyalar o'z faoliyatini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarga kirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida transmilliylashuv strategiyalarini faol qo'llamoqda.

Bugungi kunda TMKlar jahon yalpi ichki mahsuloti, xalqaro savdo va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining muhim qismini nazorat qilmoqda. Ularning faoliyati nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki



texnologiyalar transferi, yangi ish o'rinlarini yaratish va xalqaro ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish orqali mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, transmilliy korporatsiyalarning shakllanish mexanizmlari, xalqaro faoliyatni tashkil etish usullari hamda transmilliylashuv darajasini baholash masalalari iqtisodiy fanlarda dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy kompaniyalarning global bozorlardagi ishtirokini kengaytirishni talab etmoqda. Shu sababli transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish xususiyatlari, ularning tashkil etilish bosqichlari hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transmilliy korporatsiyalar va xalqaro kompaniyalar faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur masala bo'yicha dastlabki fundamental tadqiqotlar amerikalik iqtisodchi Stephen Hymer tomonidan amalga oshirilgan. U xorijiy investitsiyalar oqimini izohlashda kompaniyalarning monopolistik ustunliklari mavjudligini asoslab berdi hamda transmilliy korporatsiyalarning shakllanishini bozor nomukammalliklari bilan bog'ladi. Hymerning fikricha, kompaniyalar xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun mahalliy firmalarga nisbatan ma'lum ustunliklarga ega bo'lishi zarur.

Raymond Vernon tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotning hayotiy sikli nazariyasi xalqaro ishlab chiqarishning geografik siljishini tushuntirishga xizmat qildi. Olimning ta'kidlashicha, yangi mahsulotlar dastlab rivojlangan mamlakatlarda yaratiladi, keyinchalik ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maqsadida boshqa mamlakatlarga ko'chiriladi. Ushbu yondashuv transmilliy korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarish quvvatlarini xalqaro miqyosda joylashtirish mexanizmlarini tushuntirib beradi.

John H. Dunning tomonidan ilgari surilgan eklektik paradigma yoki OLI modeli transmilliy korporatsiyalar nazariyasining eng keng tarqalgan konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, kompaniyaning xalqaro faoliyatga kirishishi mulkiy ustunliklar (Ownership), joylashuv afzalliklari (Location) va internallashtirish afzalliklari (Internalization) mavjud bo'lgandagina iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Dunning konsepsiyasi hozirgi kunda ham xalqaro biznes tadqiqotlarida metodologik asos sifatida qo'llanib kelinmoqda.

Peter J. Buckley va Mark Casson internallashtirish nazariyasini rivojlantirib, transmilliy korporatsiyalar faoliyatining asosiy maqsadi bozor tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish ekanligini asoslab berdilar. Ularning tadqiqotlarida kompaniyalar ayrim operatsiyalarni tashqi bozorga topshirish o'rniga korporatsiya ichida amalga oshirish orqali samaradorlikka erishishi ko'rsatib berilgan.

Sanjaya Lall transmilliy korporatsiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini tadqiq qilib, xorijiy investitsiyalar texnologik transfer, innovatsiyalar va inson kapitalining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. Shu bilan birga, olim mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligi va texnologik salohiyati yetarli bo'lmagan sharoitda TMKlar ustun mavqega ega bo'lib qolishi mumkinligini ta'kidlagan.

UNCTAD ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda transmilliy korporatsiyalar global ishlab chiqarish zanjirlarining asosiy ishtirokchilari sifatida baholanadi. Ularning hisobotlarida transmilliylashuv darajasini baholash uchun xorijiy aktivlar, xorijiy savdo hajmi va xorijdagi xodimlar ulushiga asoslangan Transmilliylashuv indeksi keng qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.

So'nggi yillarda Alan M. Rugman va John Cantwell tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda transmilliy korporatsiyalar faoliyatining innovatsion rivojlanish, ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda global qiymat zanjirlari bilan bog'liq jihatlari chuqur tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlari zamonaviy TMKlarning xalqaro raqobatbardoshlikni shakllantirishdagi rolini yoritib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar, xususan, UNCTAD, Jahon banki va ilmiy adabiyotlar manbalaridan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik tahlil usullari asosida qayta ishlanib, transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish omillari, xalqaro faoliyat mexanizmlari va transmilliylashuv darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rganildi. Shuningdek, ilmiy umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv jarayonlari sharoitida milliy kapitalning mamlakat sarhadlaridan chiqib, xalqaro miqyosda harakat qilishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Xalqaro kompaniyalar — bu milliy



kapitalni boshqa davlatlarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va maksimal foyda olish maqsadida olib chiquvchi subyektlardir.

Bugungi kunda xalqaro kompaniyalarning aksariyati transmilliy korporatsiyalar (TMK) hisoblanib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha konsern ko'rinishiga ega. Ular XIX–XX asr boshlarida kuzatilgan, ishtirokchilari o'z mulkiy mustaqilligini saqlab qolgan kartel, sindikat yoki trestlardan tubdan farq qiladi. Zamonaviy konsern — bu turli tarmoqlar va geografik hududlar bo'yicha diversifikatsiyalangan kapitalning yagona mulkdoridir [1].

TMKlar tarkibiy jihatdan ikki qismdan iborat:

a) Bosh (ona) kompaniya: odatda korporatsiyaning milliy mansubligini aniqlaydi va strategik qarorlarni qabul qiladi.

b) Xorijiy filiallar (sho'ba korxonalar): bosh kompaniya tomonidan nazorat qilinadigan va uning kapital ulushiga ega bo'lgan xorijdagi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish nuqtalari.

Tarixiy fakt va xalqaro tajriba: ko'pmillatli kompaniyalarning ilk yirik namunasi sifatida 1929-yilda Daniyaning "Margarin Yuni" va Buyuk Britaniyaning "Lever Brazers" firmalarining birlashishidan tashkil topgan "Unilever" kompaniyasini keltirish mumkin. Bugungi kunda u dunyoning 60 ga yaqin davlatida 500 dan ortiq filiallariga ega bo'lib, uning boshqaruvi ikki shtab-kvartira (London va Rotterdam) orqali amalga oshiriladi.

Internatsionalizatsiyani rag'batlantiruvchi strategik omillar kompaniyalarning global bozorga chiqish qarori tasodifiy bo'lmay, ma'lum iqtisodiy rag'batlarga asoslanadi:

a) Tovar ayirboshlash hajmining oshishi ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishlatishga va mahsulot birligiga to'g'ri keladigan doimiy xarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Bu esa yakuniy foyda miqdorini oshiradi va risklarni xalqaro hamkorlar o'rtasida diversifikatsiya qiladi.

b) Xarajatlarni optimallashtirish: qabul qiluvchi davlatlardagi arzon xomashyo, resurslar va nisbatan past ish haqi hisobiga ishlab chiqarish tannarxi pasaytiriladi. Mahalliy firmalar bilan strategik alyanslar tuzish orqali yangi texnologiyalarga kirish imkoniyati kengayadi.

c) Tayyor infratuzilmadan foydalanish: xorijiy mamlakatning rivojlangan sanoat bazasi, moliya-kredit tizimi, savdo kanallari va logistika infratuzilmasidan tayyor holda foydalanish kapital samaradorligini tezlashtiradi [2].

Milliy kompaniyalardan TMKgacha bo'lgan evolyutsion bosqichlar kompaniyalarning transmilliylashuv jarayoni ma'lum bir ketma-ketlikda (bosqichma-bosqich) amalga oshadi.

Birinci bosqich — shartnomaviy munosabatlar (eksport-import). Bu bosqichda faoliyat bir martalik eksport-import bitimlari bilan cheklanadi. Hamkorlar bir-birlarining moliyaviy imkoniyatlari va ish uslublarini endi o'rgana boshlaydilar, ishonch darajasi past bo'ladi.

Ikkinchi bosqich — uzoq muddatli shartnomalar va konsortsiyalar. Munosabatlar kengayib, 2 yil va undan ortiq muddatga mo'ljallangan shartnomalar tuziladi. Bunga texnologiya transferi, litsenziya kelishuvlari va kapitalni kredit (ssuda) shaklida olib chiqish kiradi.

a) Eksporter uchun foydasi. Savdo bozorlari barqarorlashadi, transport kompaniyalari bilan uzoq muddatli kelishuvlar orqali logistika xarajatlari qisqaradi, reklama va mijoz qidirish xarajatlari tejaladi.

b) Importer uchun foydasi. Xomashyo va tovarlar yetkazib berish kafolatlanadi.

c) Konsortsiyalar. Tashqi bozorga yakka o'zi chiqa olmaydigan kichik va o'rta kompaniyalarning resurs hamda marketing guruhlarini birlashtiruvchi vaqtinchalik ittifoqidir (ayniqsa, agrar sektorda meva, go'sht va sut mahsulotlari savdosida keng tarqalgan) [3].

Uchinchi bosqich — qo'shma korxonalar (Joint Ventures). Hamkor davlat hududida yangi obyektlar qurmasdan, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan birgalikda foydalanish. Biroq qo'shma korxonalar ko'pincha vaqtinchalik xarakterga ega (o'rtacha umri — 4 yil). Vaqt o'tishi bilan strategik jihatdan kuchliroq hamkor kuchsizini yutib yuboradi.

Firmalarni birlashtirish qarori oylab davom etadigan hisob-kitoblarni talab qiladi va quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Harakatlarning strategik rejasini belgilash.

2. Boshqaruv tizimini, shtab-kvartira va ITTKI (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari) markazlari joylashuvini kelishish.

3. Aktivlarni xolis baholash.

4. Xodimlar (shtat) tarkibini optimallashtirish [4].

Iqtisodiy ko'rsatkich sifatida birlashishning muvaffaqiyatli o'tganligi operatsiyalar hajmining 10–20 % ga o'sishi hamda xarajatlarning 10–20 % ga kamayishi bilan tavsiflanadi. Transmilliylashuv darajasini baholash metodologiyasi. Kompaniyaning xalqaro bozordagi integratsiyalashuv darajasini aniqlash uchun BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan tavsiya etilgan Transmilliylashuv indeksi qo'llaniladi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$I = (XA/UA + XS/US + XSh/USh) : 3$$

bu yerda:

I — transmilliylashuv indeksi;



XA – xorijiy aktivlar;
UA – umumiy aktivlar;
XS – xorijiy filiallarning tovar va xizmatlar savdosi hajmi;
US – umumiy tovar va xizmatlar savdosi hajmi;
XSh – xorijiy shtat;
USh – umumiy shtat.

Ushbu indeks qanchalik yuqori (1 ga yaqin yoki foiz hisobida 100 % ga yaqin) bo'lsa, kompaniyaning tashqi bozorlarga va global iqtisodiyotga bog'liqligi hamda undagi mavqeyi shunchalik yuqori hisoblanadi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy transmilliy korporatsiyalar shunchaki yirik korxonalar emas, balki global iqtisodiy siyosatni belgilovchi subyektlardir. Ularning shakllanishi oddiy eksport munosabatlaridan boshlanib, strategik alyanslar va qo'shma korxonalar orqali yagona transmilliy tizimgacha rivojlanadi. O'zbekiston iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyalashuvi ham mahalliy kompaniyalarning transmilliylashuv indeksini oshirishni hamda xalqaro huquqiy normalarga qat'iy rioya qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development). World Investment Report. – Geneva: United Nations, 2024.
2. Krugman, P. R., Obstfeld, M., & Melitz, M. J. International Economics: Theory and Policy (11th Edition). – Pearson, 2018.
3. Daniel, J. D., Radebaugh, L. H., & Sullivan, D. P. International Business: Environments and Operations. – Prentice Hall, 2015.
4. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi (Darslik). – Toshkent: „Barkamol fayz media“, 2019.
5. Hymer S. H. The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment. – Cambridge, MA: MIT Press, 1976.
6. Vernon R. International Investment and International Trade in the Product Cycle // Quarterly Journal of Economics. – 1966. – Vol. 80. – No. 2. – P. 190–207.
7. Dunning J. H. Multinational Enterprises and the Global Economy. – Harlow: Addison-Wesley, 1993.
8. Buckley P. J., Casson M. The Future of the Multinational Enterprise. – London: Macmillan, 1976.
9. Lall S. Transnational Corporations and Economic Development. – London: Routledge, 1993.
10. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment and Sustainable Development. – Geneva: United Nations, 2024.
11. Rugman A. M. The End of Globalization. – London: Random House Business Books, 2001.
12. Cantwell J. Innovation and Information Technology in Multinational Enterprises. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2004.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>